

XALQARO HUSUSIY HUQUQDA OTA-ONA QARAMOG'ISIZ QOLGAN
BOLALARNI JOYLASHTIRISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH: MILLIY
VA HORIJJIY MAMLAKATLAR QONUNCHILIGINING QIYOSIY TAHLILI

Oybo'tayeva Laylo

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yetim qolgan bolalarning huquqlari, ularni joylashtirish masalasi turli hil davlatlarda, xalqaro tashkilotlar va bizning davlatda qanday huquqiy tartibga solinishi to'g'risida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *g'amxo'rlik, yetim qonun, nodavlat, xavfsizlik, manfaatlari.*

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ УСТРОЙСТВА ДЕТЕЙ,
ОСТАВШИХСЯ БЕЗ ПОПЕЧЕНИЯ РОДИТЕЛЕЙ, В МЕЖДУНАРОДНОМ
ЧАСТНОМ ПРАВЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
СТРАНЫ И ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН

Oйбутаева Лайло

Студентка Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация:

В данной статье речь пойдет о правах детей-сирот, о том, как вопрос их размещения регулируется в разных государствах, международных организациях и в нашем государстве.

Ключевые слова: забота, закон о сиротах, негосударственные, безопасность интересы.

LEGAL REGULATION OF THE PLACEMENT OF CHILDREN LEFT
WITHOUT PARENTAL CARE IN INTERNATIONAL PRIVATE LAW: A
COMPARATIVE ANALYSIS OF THE LEGISLATION OF NATIONAL AND
FOREIGN COUNTRIES

Oybutaeva Laylo

Student of Tashkent State Law University

Abstract: *This article will talk about the rights of orphaned children, how the issue of their placement is legally regulated in different countries, international organizations and our state.*

Key words: *care, the law on orphans, non-state, safety, interests.*

KIRISH

Har bir farzand o‘z ota-onasi bag’rida ulg’ayishga,o‘z hayotini ularning yordami va qo’llab-quvvatlashi orqali qurishga haqli.Lekin ming afsuslar bo’lsinki har bir bola ham bunday imkoniyatga ega emas.Ba’zi bolalar o‘z ota-onalarini tug’ilgan zahotlariyoq yo‘qatadilar va ota-ona mehri nima ekanligini bilmay katta bo’ladilar,ba’zi bolalar esa hayotlarining qaysidir qismida ota-ona qaramog’isiz qoladilar va bu ikkala holat ham juda achinarli hisoblanadi.Bilamizki bunday bolalar jamiyatning eng zaif guruhlaridan biri hisoblanadilar.Ular jismonan va ruhan rivojlanishda turli hil muammolarga duch keladilar,shuningdek psixoliglarning fikricha bunday bolalarda odamlar bilan ijtimoiy aloqada bo’lish tajribasi yetishmaydi va ular pul va mulkchilik munosabatlarini tushunmaslik,oilada normal hayot kechirish bo‘yicha shaxsiy tajribaning yetishmasligi kabi muammolarga duch keladilar.Xo’sh dunyo davlatlari,xalqaro tashkilotlar va O‘zbekiston hukumati ota-ona qaramog’isiz qolgan bolalarni qanday himoya qiladi va ularni joylashtirish masalasini qanday hal qiladi?

AQSH

Amerika qo’shma shtatlarida yetim qolgan bolalarni joylashtirish masalasi vaziyatga qarab har xil bo’lishi mumkin.Bolalar ota-onasi tomonidan ixtiyoriy ravishda boshqa insonning qaramog’iga qoldirilishi mumkin.Ota-onalarni bunday jiddiy qaror qabul qilishlariga turli xil sabablarni ko’rsatish mumkin.Masalan kasallik,ota va onaning uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingani yoki farzand o’stirish uchun yetarli darajada mablag’ yetishmasligi kabilar sabab bo’lib xizmat qilishi mumkin.Ikkinchi usul bu “foster care” tushunchasi bo’lib o‘zbek tiliga tarjima qilinganda homiylik degan ma’noni anglatadi va bu usul Amerikada juda keng tarqalgan hisoblanadi. “Foster care” termini birinchi bor yigirmanchi asrning oxirida paydo bo’lgan.Ushbu usulda voyaga yetmagan bolalar farzand asrab olmoqchi bo’lgan oilalar tarbiyasiga topshiriladi va ushbu oilaga bolaning ehtiyojlarini qoplash uchun hukumat tomonidan oylik to’lovlar to’lab boriladi.Ushbu pul faqatgina bolaning ehtiyojlari uchun ishlatilishi zarur,ota-onaning shaxsiy xarajatlari uchun emas.Ushbu oylik to’lov har bir shtat uchun har-xil hisoblanadi.Misol uchun Californiya shtatida ota-onalarga 1,000 dollarda 2,609 dollargacha to’laniladi,Florida shtatida 429-440 dollargacha

to'laniladi¹. Majburiy joylashtirish esa qachonki bola hayoti uchun jiddiy xavf soluvchi omillar bor deb hisoblanganda qo'llaniladi. Bunday hollarda bolalarni himoya qilish xizmatlari yoki agentliklari aralishib bolani ota-onasidan ajratib olishlari mumkin. “Children Act 1989” qonuniga ko‘ra xavf soluvchi omillar qilib 4 holat ko‘rsatilgan. Bular:

- Jismoniy zo‘ravonlik
- Jinsiy zo‘ravonlik
- Ruhiy zo‘ravonlik
- Bolani e’tiborsiz qoldirish
- Bolani bir umrga tark etish²

Ushbu holatlarda biri aniqlanganda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish ishchilari tomonidan bola ota-onasidan tortib olinadi, keyinchalik esa sud tomonidan ota-onalagi nisbatan bo‘lgan huquqlaridan mahrum qilinadilar. Shuning bilan birga sud bolaning huquqiy maqomini aniqlash va bolani boshqa joyga joylashtirish masalalarini ham hal qiladi. Umuman olganda AQSH da ota-onalagi qaramog’isiz qolgan bolalarni joylashtirish masalasi ularning xavfsizligi va farovonlik ta’minalashga qaratilgan. Muayyan usullar va talablar har bir shtat qonunlarga qarab o‘zgarishi mumkin, lekin maqsad bitta u ham bo’lsa bola manfaatlarini himoya qilish.

BRAZILIYA

Lotin Amerikasida joylashgan eng katta davlat Braziliyada yetim qolgan bola huquqlari qanday himoya qilinishiga to‘xtalib o‘tsak. Ushbu mamlakatda ota-onalagi qaramog’isiz qolgan bolalar huquqlari “Bola va o‘sipinlar to‘g’risidagi” nizom bilan tartibga solinadi. Ushbu nizomda yetim bolalarni himoya qilish va faravonligini ta’minalash bo‘yicha ko‘rsatmalar va kafolatlar berib o‘tilgan. Bola ota-onalagi qaramog’isiz qolganda, uning himoyasini va ehtiyojlarni ta’minalash davlat zimmasida bo‘ladi. Yuqorida keltirib o‘tilgan nizomga binoan yetim qolgan bolalar xavfsiz muhitga joylashtirilishi kerak. Xavfsiz muhit sifatida bolaning qarindoshlari, homiylar tushunilishi mumkin. Shuni takidlab o‘tish zarurki bolaning Braziliya qonunchiligidagi bolaning manfaatlari ularning g‘amxo‘rligi bilan bog’liq har qanday qarorlarda ustuvor prinsip hisoblanadi. Ushbu davlatda yetim qolgan bolalarni joylashtirish masalasi bilan “Bolalar va o‘sipinlarni himoya qilish xizmatlari markazi” hamda “Bolalar va o‘sipinlar huquqlari bo‘yicha milliy kengash” kabi

¹ <https://www.marca.com/en/lifestyle/us-news/personal-finance/2023/06/24/6496a0e222601d23658b458a.html>

² <https://www.ojp.gov/ncjrs/virtual-library/abstracts/welfare-children-paramount-children-act-1989#:~:text=Concepts%20emphasized%20in%20the%20Children,all%20proceedings%20at%20all%20tiers%2C>

organlar shug'ullandi. Shuningdek Braziliya Birlashgan Millatlar Tashkilotining bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qilgan. Ushbu konvensiya yetim bolalarni himoya qilish, ularni qo'llab-quvvatlash va parvarish qilish ahamiyatini bosh maqasad qilib qo'yadi.

HINDISTON

Dunyo bo'ylab eng ko'p yetim bolalar aynan Hindistonda joylashgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2023-yilga kelib 31 million bolalar ota-on a qaramog'idan mahrum bo'lishgan³. Buning asosiy sabablaridan biri kambag'alchilik. Hindiston aholising yarimi qashshoqlikda yashaydi, shu sababli ko'pgina ota-onalar farzandlariga g'amxo'rlik qilish o'rniqa ularni tashlab ketadilar, sababi farzandlarini parvarish qilish uchun mablag'lari yetishmaydi yoki umuman ushbu mablag' mavjud emas. Ikkinchi asos qilib esa yetim qolgan bolalarga hukumat tomonidan juda kam e'tibor ajratilishi ko'rsatiladi. Hozirgi kunda 31 million yetim bolalarning atiga 370.000 tasi mehribonlik uylariga joylashtirilgan⁴ va boshqalar tomonidan asrab olinishlari mumkin hisoblanadi. Qolgan 30 milliondan ortiq bolalar esa shunchaki hukumat va jamiyat tomonidan e'tiborsiz qoldirilib kelinmoqda. Holatni yanada yomonlashtiradigan holat shuki mehribonlik uyida yashayotgan bolalarni asrab olish ham juda qiyin jarayon hisoblanadi. Farzandlikka olishni istovchi insonlar asrab olish uchun ariza topshirish jarayonida ularga hech qanday yordam ko'rsatilmasligi haqida shikoyat qiladilar. Mehribonlik uylariga tusholmagan bolalar shunchaki ko'chalarda yashashadi va bunday bolalar juda katta xavf ostida qolgan hisoblanadilar. Eng katta xavflardan biri bu odam savdosidir, chunki himoyalangan bolalar eksplutatsiya uchun juda katta o'lja hisoblanadilar. Ma'lumotlarga ko'ra Hindistonda odam savdosiga uchragan insonlarning 47 foizi voyaga yetmagan bolalardir. Qonun tomonidan yetim bolalarning himoyasi va ularni joylashtirish masalasi qanday tartibga solinadi?

Hindiston konstitutsiyasining 23 va 24 moddalariga ko'ra qonun 14 yoshdan kichik bolalarni odam savdosidan, majburiy mehnatdan va xavfli joylarda ishslashdan himoya qiladi. 1960 yilda qabul qilingan bolalar uylari va boshqa xayriya uylari to'g'risidagi nizomga binoan hukumat bolalarni himoya qilish muassasalari va bolalar uylarina boshqarish huquqiga egadirlar. Ushbu nizom Jammu va Kashmir hududlaridan tashqari butun Hindistonda 18 yoshdan kichik bo'lgan bolalar uchun qo'llaniladi. Hindiston qonunchiligiga

³ <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/countries-with-the-most-orphans>

⁴ <https://borgenproject.org/orphans-in-india/#:~:text=With%2030%20million%20orphans%2C%20there,child%20escaping%20a%20dangerous%20situation.>

ko‘ra hukumat yetim qolgan bolalarni muassasalar va mehribonlik uylariga joylashtirish masalasi bo‘yicha muhim rol o‘ynaydi. Ushbu muassasalar ko‘pincha hukumatning ijtimoiy ta‘minot bo‘limlari yoki bolalarni himoya qilish qo‘mitalari tomonidan boshqariladi. Shuningdek Hindistonda nodavlat tashkilotlar ham mavjud bo‘lib, ushbu tashkilotlar ota-ona qaramog’isiz qolgan bolalarni xavfsizligi ta‘minlash uchun ko‘p mehnat qiladilar. Ushbu tashkilotlarga aarna foundation, save the children, child help foundation kabilar misol bo‘la oladi. Hindiston masalasiga xulosa yasar ekanmiz shu aytish mumkinki Hindistonda yetim bolalarni joylashtirish masalasi ko‘plab hujjatlar orqali himoya qilingan va hukumat nazoratiga olingan, ammo ushbu usullar yetarli bo‘lmayotganligi sababli ko‘plab ota-ona qaramog’isiz qolgan bolalar xavf ostida qolmoqdalar.

XALQARO TASHKILOTLAR VA QONUNLAR

Yetim qolgan bolalar muammosi nafaqat davlatlar tomonidan balki xalqaro tashkilotlar tomonidan ham tartibga solinishi kerak bo‘lgan masala hisoblanadi. Sababi ushbu yo‘l bilan davlatlar bolalarning manfaatlarini ta‘minlash uchun birgalikda ishlari ya’ni hamkorlikni olib borishlari mumkin bo‘ladi. Xalqaro hujjatlar orqali davlatlar bolalarni chet davlatlariga joylashtirish masalasina ham ko‘rib chiqadilar. Ushbu masalani hal qilish bo‘yicha eng muhim hujjatlarda biri bu 1989 yil BMT tomonidan qabul qilingan “Bolalar huquqlari” to‘g‘risidagi konvensiyadir. Ushbu konvensiyasining 20 muddasiga ko‘ra “O‘zining oila g‘amxo‘rligidan vaqtincha yoki doimiy mahrum bo‘lgan yoki o‘zining eng yaxshi manfaatlari yo‘lida bunday g‘amxo‘rlikda qola olmaydigan bola davlat tomonidan ko‘rsatiladigan alohida himoya va yordamni olish huquqiga egadir.

Ishtirokchi-davlatlar o‘z milliy qonunlariga muvofiq ravishda bolani parvarish qilishning almashtirilishini ta‘minlaydilar.

Bolani bunday parvarishlash, jumladan, islom shariati bo‘yicha “kafola”ga tarbiyaga berishni, asrab olishni yoki zarurat tug‘ilgan taqdirda, bolalar boqiladigan tegishli muassasalarga joylashtirishni o‘z ichiga oladi. Parvarishni almashtirish turlari qarab chiqilayotganda bola tarbiyasidagi vorislikning maqsadga muvofiqligi hamda uning etnik kelib chiqishi, diniy va madaniy mansubligi, ona tili yetarli darajada hisobga olinishi lozim.”⁵

Ushbu moddadan ko‘rinib turibdiki BMT yetim qolgan bolalarni joylashtirish mobaynida ular uchun eng maqbul va xavfsiz hamda bolaning manfaatlaridan kelib chiqib ish olib borishni maqul ko‘radi. Keyingi hujjat bu

⁵ <https://tergov.uz/uz/childs/konventsija-o-pravah-rebenka>

2009 yil BMT tomonidan qabul qilingan bolalarni parvalish bo'yicha ko'rsatmalar bo'lib, ushbu hujjatda yetim bolalarni to'g'ri parvarishlash bo'yicha davlatlar uchun bir qator prinsiplarni taqdim etgan. 1995 yilda kuchga kirgan "Farzand asrab olish" to'g'risidagi konvensiyasi davlarlararo farzand asrab olish bolaning manfaatlariga mos kelishini ta'minlash uchun xalqaro standartlarni belgilaydi. Xalqaro huquqda nafaqat yetim bo'limgan balki ota-onan qaramog'isiz qolgan bolalar huquqlarini himoya qiluvchi yana ko'plab qonunlar qabul qilingan. Bolalar huquqlarini himoya qilishda xalqaro tashkilotlar ham katta rol o'ynaydilar. Birinchi navbatda aytib o'tilish kerak bo'lgan tashkilot bu albatta UNICEF hisoblanadi. Ushbu tashkilot 1946 yilda BMT tomonidan tashkil etilgan bo'lib, har bir bolaning huquq va faravonligi uchun hizmat qiladi. Tashkilot yetim qolgan bolalarga alohida e'tibor qaratib, ularning sog'lig'i, ta'lim olishi va himoyasini ta'minlaydi. Keyingi tashkilot bu nodavlat "Save the children" nomi bilan mashhur bo'lgan tashkilotdir. Ushbu tashkilot 1919 yilda Buyuk Britaniyada tashkil topgan va bolalarning hayotini yaxshi tomonga o'zgartirish uchun ko'plab ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

O'ZBEKISTON

O'zbekiston qonunchiligidagi ota-onan qaramog'isiz qolgan bolalarni joylashtirish va ularni hioya qilish masalasi bo'yicha bir nechta hujjat qabul qilingan. Birinchi navbatda bu haqida Konstitutsianing 67 modda 2 qismida keltirib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlashi belgilab qo'yilgan hamda bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarni rag'batlantirilish ta'kidlangan. 2007 yil Senat tomonidan ma'qullangan "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'rsidagi" qonun O'zbekistonda yashovchi barcha bolalarning ta'lim olish, ulg'ayish va ijtimoiy himoyaga nisbatan kafolatlari hisoblanadi. Ushbu qonunning 13 muddasiga ko'ra bola ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lganda uning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta'minlanadi. Huddi shu qonunning 24-muddasiga ko'ra ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolaga g'amxo'rlik qilish vazifasi uning qarindoshlariga topshiriladi, lekin buning imkoniyati bo'lmasa bola ixtisoslashtirilgan muassasalarga joylashtiriladi.

Oila kodeksining VI bo'limi aynan ota-onan qaramog'idan muhtoj bo'lgan bolalarni joylashtirish masalasiga qaratilgan bo'lib, ushbu bo'limning 149 muddasiga binoan birinchi navbatda vasiylik va homiylik organlari bunday bolalarni aniqlaydi, ularni hisobga oladi va ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan har bir holatga qarab, bolalarni joylashtirish shakllarini

tanlaydi.Ushbu huquq vasiylik va homiylik organlaridan boshqa hech qanday organ yoki shaxslarga berilmagan.150-moddaga binoan “Ota·ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar oila (farzandlikka olinishi, vasiylik, homiylik belgilanishi yoki tutingan oila)ga berilishi, bunday imkoniyat bo‘lmaganda esa, yetim bolalar yoxud ota·onalar qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun tayinlangan muassasalar (tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o‘xhash boshqa muassasalar)ga tarbiyaga berilishi lozim.”⁶

XULOSA

Maqolaga xulosa keltiradigan bo‘lsam ota·ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar butun dunyoda jamiyatning eng nozik nuqtalaridan biri hisoblanishi va ularga g’amxo‘rlik qilish, ularni kelajakda jamiyat uchun o‘z hissalarini qo‘sha oladigan insonlar bo‘lib yetishlari uchun nafaqat hokimiyat,xalqaro tashkilotlar hamda oddiy xalq ham ma’sul deb o‘ylayman.Tohir Malikning “Alvido,bolalik” asari menda juda katta ta’sirot qoldirgan ararlaridan biri,sababi ushbu kitobda ota·ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bola Qamariddin boshqa insonlar tomonidan xo‘rlaganini,uni boshini silovchi unga to‘g’ri yo‘l ko‘rsatuvchi odamlar bo‘lmagani sababli uning hayoti no‘to‘g’ri yo‘llardan ketganligini kuzatishimiz mumkin.Mening fikrimcha yetim bolalarni nafaqat xavfsiz joylashtirish balki ularning tarbiyasi bilan shug‘ullanish hamda jamiyat tomonidan bunday bolalarga nisbatan kamsitishlar bo‘lmasligini ham ta‘minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.Butun dunyoda bo‘ylab bolalar teng huquqlidirlar va ularning bari obod muhitda ulg’ayishga haqlidirlar.

FOYDALANILGAN MANBAALAR:

1. <https://borgenproject.org/orphans-in-india/#:~:text=With%2030%20million%20orphans%2C%20there,child%20escaping%20a%20dangerous%20situation>
2. <https://www.freelaw.in/legalarticles/How-Constitution-protects-Orphans-and-their-Homes#:~:text=Article%2021%20of%20the%20Constitution,right%20which%20also%20includes%20orphan>

⁶ <https://lex.uz/acts/-104720#-159489>

3. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-child>
4. <https://tergov.uz/uz/childs/konventsija-o-pravah-rebenka>
5. <https://impactful.ninja/best-charities-for-helping-orphans/#:~:text=UNICEF%3A%20For%20Every%20Child%20in,of%20vulnerable%20children%2C%20including%20orphans.>
6. https://en.wikipedia.org/wiki/Save_the_Children
7. <https://bettercarenetwork.org/sites/default/files/attachments/Child%20Protection%20-%20Children%20Without%20Parental%20Care.pdfv>
8. Oila kodeksi
9. Konstitutsiya
10. Bola huquqlarining kafolatlari to‘g’risidagi qonun